International

scientific and practical conference

DECEMBER 6
2024

2024



STDF

Science technology& Digital finance

Google Scholar

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

JIZZAKH BRANCH OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN NAMED AFTER MIRZO ULUGBEK

Scientific journal of Science technology & Digital finance

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions collection of materials of the international scientific and practical conference on the topic

(December 6, 2024)

(Part 1)

Jizzakh-2024

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions collection of materials of the international scientific and practical conference on the topic – Jizzahk: Department of economics and tourism of Jizzakh branch of the national university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, December 6, 2024, 450 pp.

Editors in charge: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O'ralov A.I.

In the collection of materials of the conference, the role and role of Science, Education and production in the era of globalization, the pressing problems of the issues of interaction of these processes, feedback on their solutions were presented by mature specialists of the field.

In addition, research on the scientific and practical topic, carried out in the economics, Exact Sciences, Natural Sciences and socio-humanities during the globalization period, information is presented in the scientific and practical fields, which includes the latest innovative technologies in the fields of production.

It can be argued that this collection is one of the specific intersections of current thoughts and innovative ideas of the world of science. This scientific and practical conference was actively attended by professors and scientific researchers engaged in scientific research in Uzbekistan and foreign countries. In increasing the position of the scientific and practical conference, the professors and teachers of domestic and foreign higher educational institutions made a significant contribution.

Professors and teachers of foreign higher educational institutions who actively participated in the work of the conference made a worthy contribution to the high level of interaction with scientists of our country. The processes of international cooperation with foreign countries and exchange with them in the field of Science in the era of globalization have a positive effect on the development of Higher Education, the fields of Science and production. The materials of this conference are special in that they include a wide range of research, from theoretical developments to practical solutions, demonstrating the diversity of approaches and directions in this area.

In conclusion, it should be noted that this scientific and practical conference will be a very useful collection for everyone who is interested in modern research in the fields of further development of Higher Education, Science, Education and production in the era of globalization. The authors are responsible for the content and quality of the articles and abstracts included in the collection.

TA’LIM XIZMATLARI KO‘RSATISH SIFATINI OSHIRISH VA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKCHILIGINI RIVOJLANTIRISH



Ubaydullaeva Vasila Sadullaevna
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada ta’lim xizmatlari ko‘rsatishning o‘ziga xos xususiyatlari va davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, ta’lim xizmatlari ko‘rsatish sifatini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiya va takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim xizmatlari, ta’lim sifati, ta’lim siyosati, sifati, davlat-xususiy sherikchiligi, xususiy kapitalning ishtiroki.

KIRISh

Jahon iqtisodiyotining intensiv rivojlanishi va raqobatning tobora kuchayib borishi sharoitida ta’lim sohasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi strategik sohalardan biri sifatidagi ahamiyati tobora ortib bormoqda.“Hozirga kelib, ta’lim xizmatlari xalqaro bozorining hajmi 100 mlrd. AQSh dollarni tashkil etmoqda. «Inson kapitali» dunyo milliy boyligining 64 foizini tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich rivojlangan mamlakatlarda 70 foiz, o‘rta daromadli mamlakatlarda 58 foiz, quyi daromadli mamlakatlarda 41 foizni tashkil etmoqda” [1]. Bugungi kunda oliy ta’limning innovatsion taraqqiyotning yetakchi omiliga aylanib borishi sharoitida ta’lim xizmatlari bozorini rivojlantirishga muhim vosita sifatida qaralmoqda.

Jahonning rivojlangan davlatlari va Xalqaro tashkilotlari 2030 yilgacha yangi ta’lim konsepsiyasini qabul qilgan bo‘lib, unda «ta’lim tizimini boshqarishni, ta’lim sifatini uni baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish» dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Bu esa o‘z navbatida jahon mamlakatlari uchun ta’lim tizimi tashkiliy va boshqaruv tuzilmasini yanada takomillashtirish, samarali ta’lim siyosati hamda boshqaruv mexanizmlarini ta’lim sohasiga joriy etish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim tizimi, jumladan oliy ta’lim tizimini sifat jihatdan rivojlantirish borasida ta’lim sifatini yuksaltirish, kadrlar salohiyatini oshirish va ta’lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bilan bir qatorda davlat-xususiy sherikchiligini alohida e’tibor qaratilmoqda.

ADABIYOTLAR ShARHI

Shu o‘rinda olimlar tomonidan ilgari surilgan ta’lim siyosatining asosiy vazifalari va vazifasi bo‘yicha fikrlariga e’tibor qaratamiz. Professor Sh.R.Xolmuminovning ta’kidlashicha, “Zamonaviy sharoitlarda o‘zbek ta’lim

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

siyosatining asosiy vazifasi [2] – ta’limning zamonaviy xususiyatlarini uning asosliligi va davlat, jamiyat va shaxsning faol va istiqbolli ehtiyojlariga muvofiqligi asosida ta’minlash. Shunday qilib, ta’limni modernizatsiyalash - bu faqat mamlakat ta’lim majmuini rivojlantirishning muammolari majmui emas, balki ham siyosiy, ham umummilliy masaladir; u biror idoraga mansub loyiha bo‘lishi mumkin emas. Respublika fuqarolari, davlat organlari institutlari, mahalliy o‘zini boshqarish organlari, professional-pedagogik jamoatchilik, ilmiy, madaniy, tijorat va ijtimoiy institutlar ta’lim siyosatining faol sub’ektlari bo‘lishlari lozim”.

Bu fikrni MDH davlatlari olimlari A.B Yusov, A.A. Kasatkina ham qo‘llab-quvvatlab quyidagi fikrlarni ilgari surganlar: “ta’lim insonni tashabbuskorroq, ijodkorroq qilib, aholining ijtimoiy faolligiga kuchli ta’sir qiladi, ya’ni aholining ijtimoiy faolligi inson kapitalining yuqori darajasining mahsulidir. Ta’lim zo‘rovonlik darajasini pasaytiradi va jamiyatga ishonchni oshiradi. Ta’lim madaniyatni ham oshiradi. Madaniyat siyosatga nisbatan ko‘proq darajada jamiyat taraqqiyotini belgilaydi”[3].

Bundan tashqari “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy darajasini uzluksiz takomillashtirish uchun shart-sharoitlarini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2015 yil 20 avgustdagi 242-sonli Qarori respublikamizda ta’lim sifatini oshirishga alohida e’tibor qaratilayotganligining yaqqol dalilidir [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida dialektik va tizimli yondashuv, qiyosiy va solishtirma tahlil, sosiologik so‘rovnoma usullaridan foydalanildi. Bu borada O‘zbekiston Respublikaning Konstitutsiyasi, qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Qarorlari ham o‘rganildi va muammoning kompleks o‘rganish uchun moliya, maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi faoliyatiga doir ma’lumotlardan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mamlakatimizda ta’lim xizmatlari ko‘rsatishda davlat-xususiy sheriklik masalasiga katta ahamiyat berilmoqda. Bu borada maxsus qonun, Prezidentimizning farmon va qarorlari qabul qilingan. Bular jumlasiga: O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 10 mayda “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi O‘RQ-537-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 oktabrda “Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning huquqiy va institutsional bazasini yaratish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3980-son qarori, 2020 yil 26 aprelda “Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 259-son qarorlari qabul qilindi. 2019 yil 8 oktabrda PF-5847-sonli «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi farmoni hamda mazkur sohalarga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar kiradi.Ushbu hujjatlarda

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

belgilangan vazifalarni amalga oshirish jarayonida barcha sohalar bilan birga ta’lim sohasida ham davlat-xususiy sheriklik masalalarini rivojlantirish vazifasi qo‘yilgan.

«Avvalo ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim».[5]

Shu tufayli bugungi kunda ta’lim sohasini jadal rivojlantirish hayotiy zaruratga aylangan bir pallada, bunga erishish uchun davlat-xususiy sherikchiligi imkoniyatlaridan ham foydalanish va uni ta’lim tizimiga moslashtirish mazkur tadqiqot ishining dolzarbligini belgilab beradi.

Ta’lim tizimida jamiyatning xizmatlar sifatini oshirish doimo diqqat-e’tiborida turadi. Ta’lim xizmatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi tavsifi ta’lim xizmatlari bozorida bajariladigan vazifalar, xizmatlarni taqdim qilish davomiyligi, ta’lim olish usullari, ta’lim xizmatlariga to‘lov turi, xizmatlarni taqdim qilish shakli hamda ixtisoslashuvi asosida tasniflanish imkonini berdi (1-jadval).

1-jadval

Ta’lim xizmatlari sifatini oshirish va davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirish imkoniyatlari [6]

Ko‘rsatkichlar	Ta’lim xizmatlari sifatini oshirish
Asosiy vazifalar	– umumta’lim dasturlari; – kasbiy ta’lim dasturlari.
Muddati	– uzoq muddatli (umumta’lim muassasalari va oliy ta’lim muassasalarida o‘qish); – o‘rta muddatli (malaka oshirish, kadrlarni qayta tayyorlash, stajirovkalar); – qisqa muddatli (kurslar, treninglar).
Ta’lim shakllari	- an’anaviy; - innovatsion.
Ta’limga to‘lov shakli	– bepul; – to‘lovli; – shartli to‘lovli.
Ta’lim xizmatlari shakli	– kunduzgi; – sirtqi; – kechki; – masofaviy.
Qobiliyatni shakllantirish	– bolalar ijodi va rivojlanishi; – predmetli chuqurlashtirilgan tayyorgarlik; – kadrlarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash va h.k.
Davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirish	– ta’lim muassasalarida xususiy kapitalning ishtiroki va innovatsion faoliyatni boshqarish - DXSh yo‘nalishlari va vositalarini kengaytirish asosida ta’liim xizmat ko‘rsatish

Hozirgi vaqtda iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida ta’lim xizmatlari bozorining barqaror rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili sifatida uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Iqtisodiyot nazariyasida “ta’lim xizmatlari” tushunchasi tadqiqotchilar

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

o‘rtasida o‘tkir munozaralarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan va bu munozaralar hanuzgacha davom etmoqda. Iqtisodiyot fanlarida ta’lim xizmatlari bozorining mohiyatini aniqlovchi alohida holatlar bilan bog‘liq uning xususiyatlari, segmentlari, marketing tadqiqotlari va bir qator masalalar ancha chuqur tadqiq etilgan. Biroq ta’lim xizmatlari bozorini tavsiflovchi yaxlit tadqiqotlar kam uchraydi. Bularning barchasi ta’lim xizmatlari bozori haqidagi yondashuvlarni tizimlashtirish va uning mustaqil muhim kategoriya sifatida mohiyatini har tomonlama ochib berishni taqozo etadi.

Ilmiy izlanishlar asosida shunday xulosaga keldikki, ta’lim xizmatlari barcha bozor sub’ektlari o‘rtasida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar bo‘lib, iste’molchi salohiyatini o‘sishiga yo‘naltirilgan muayyan ta’lim mahsulotlarini taqdim etish jarayoni hamda ishchi kuchini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga hamda xodimning kasb yoki malaka olishga, qayta malakadan o‘tishga, ishlab chiqarish talabini qondirishga yo‘naltirilgan o‘quv yurtining faoliyati natijasi bo‘lib, bu tizimga xususiy sherikchilikning mablag‘larini yo‘naltirish ijobiy samara beradi.

DXSh loyihalarining uctunligi tarmoq rivojlanishining garovi canalgan sheriklik munocabatlari uzoq muddatli xarakterga ega ekanligi hicoblanadi. Bunday sheriklik xucuciy cektor recurclarini jalb qilish imkoniyati tufayli nafaqat ishlab chiqarish, transport, ta’lim, fanda ham loyihalarni amalga oshirishga imkon beradi.

Bizningcha, sheriklikning yuqoridagi o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, sheriklar o‘rtasida rollarni to‘g‘ri taqcimlash uchun ta’lim sohasida DXShni sheriklar o‘rtasida rollarni samarali taqcimlash maqcadida o‘zaro manfaatli munocabatlar tizimi sifatida ta’riflash mumkin. Shuningdenk ta’lim sohasida DXSh ta’lim tizimining samaradorligi va raqobatbardoshligini, ta’lim muassasalarining invectitsion jozibadorligini oshiradigan, shuningdek, yuqori sifatli xizmat ko‘rcatgan holda jamiyat uchun ijtimoiy ahamiyatga ega xizmatlar ko‘rcatilishini ta’minlaydigan moliyaviy va boshqa recurc sharoitlarini rivojlantirishga asos bo‘ladi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://cyberleninka.ru/article/n/mirovoy-rynok-obrazovatelnyh-uslug-vysshey-shkoly;http://www.m-economy.ru/art.php?nArtId=3649
2. Холмуминов Ш.Р. О концепции модернизации образования // Образование и социально–экономическое развитие в начале третьего тысячелетия. Тез. докл. конф. «XIX-Международные Плехановские чтения», по-свяшенной 10–летнему юбилею Филиала РЭА им. Г.В. Плеханова в г. Ташкенте. 2 февраля 2006 года. –Т., 2006. – I. – С. 17-19
3. Юсов А.Б., Касаткина А.А. Высшее образование как фактор формирования инновационно-активной экономики России // Проблемы современной экономики. – 2016. – 3 (47). – С. 394-399.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 12 июндаги “Олий таълим муасасаларининг раҳбар ва педагог кадрларини қайта тайёрлаш ва

малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4732-сон Фармони.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига Мурожаатномаси, 30.12.2020. https://review.uz/oz/post/poslanie-prezidenta-uzbekistana-shavkata-mirziyoyeva-oliy-majlisu
1. Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024